

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Н.Х.Хакимов, А.А.Абдумаликов, Ё.З.Нуриддинов**

Объективные и субъективные факторы в возникновении первого периода восточного ренессанса (IX-XII вв.) ..... 5

**D.E.Normatova, S.N.Muxammadova**

Dialektikaning paydo bo'lishi va uning namoyandalari ..... 12

**N.M.Axmadiyev**

Milliy o'zlikni anglashda Vatanparvarlik tamoyilining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari ..... 15

**Д.А.Исаева**

Влияние медиа на развитие античной философской мысли ..... 18

**I.A.Asatulloev**

Erix Frommning ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida diniy mavjudlikni anglashning axloqiy ahamiyati ..... 22

**O.B.Shokirov**

Yangi O'zbekistonning ma'nnaviy yuksalish jarayonida san'at imkoniyatlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili ..... 28

**R.B.Abduraxmonov**

Oilaviy zo'ravonlik tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari ..... 32

**X.J.Toshpo'latov**

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'nnaviy muhit barqarorligini ta'minlashda viktimologik profilaktika tizimini yuksaltirishning falsafiy masalalari ..... 36

**A.I.Abdullaxo'jaev**

Is'hoqxon ibrat va "Tabodili zamon": ijtimoiy-falsafiy tahlil ..... 39

**I.T.Yuldashev**

Jamiyat ma'nnaviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atining o'rni va uning ijtimoiy-falsafiy tahlili ..... 43

**A.A.A'zamjonov**

Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda amaliy san'atning badiiy-ijodiy imkoniyatlari ..... 47

**M.K.Soipova**

Fazl Ibn Ahmad ta'lilotida ontologik masalalarning qiyosiy tahlili ..... 51

**S.F.Abdusattarova**

Models of social processes: a philosophical perspective on the interaction between humans and society ..... 55

**S.R.Xoldarov**

Zamonaviy jamiyatda konfutsiychilikni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari ..... 60

**Sh.B.Samanova**

Atrof-muhit muvozanatida ekologik madaniyatning o'rni ..... 66

**R.Orziboyev**

G'oyaviy birdamlik tushunchasi va uning falsafiy tahlili ..... 70

## SIYOSAT

**Z.Sh.Turg'unboyev**

O'zbekiston va Afg'oniston savdo-iqtisodiy integratsiyasi ahamiyati: tahlil va kelajakdag'i imkoniyatlar ..... 74

**Ф.М.Бафоев**

Проблемы нелинейного воздействия и неравновесность в современной мировой политике ..... 80

**A.To'xtasinov**

Ekologik munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari ..... 84

**U.U.Sattarov**

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha normativ-huquqiy asoslar ..... 88

**B.T.Shokirov**

Kiberxavfsizlikning davlat siyosat darajasiga ko'tarilishi: zamonaviy tahdidlar va strategiyalar ..... 94



УО'К: 338.9:339.5(575.1+581)

**O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON SAVDO-IQTISODIY INTEGRATSIVASI AHAMIYATI:  
TAHLIL VA KELAJAKDAGI IMKONIYATLAR**

**ЗНАЧЕНИЕ ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ИНТЕГРАЦИИ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ  
И АФГАНИСТАНОМ: АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ НА БУДУЩЕЕ**

**THE SIGNIFICANCE OF TRADE AND ECONOMIC INTEGRATION BETWEEN  
UZBEKISTAN AND AFGHANISTAN: ANALYSIS AND FUTURE PROSPECTS**

Turg'unboyev Zaylobiddin Shohobiddin o'g'li   
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchi

**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada O'zbekiston va Afg'oniston davlatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikning yangi bosqichi hamda ushbu jarayonda davlat rahbarlarining iqtisodiyot sohasida olib borayotgan siyosatlari tahlil qilinadi. Maqolani maqsadi O'zbekistonning qo'shni Afg'oniston iqtisodiyotini rivojlantirishga qo'shayotgan hissasi, hamkorlik qilinayotgan tarmoqlarni aniqlash va bu aloqalarning kelajakdagisi imkoniyatlarini yoritishdir. Shuningdek, xalqaro munosabatlar nazariysi yordamida, ushbu o'rganilayotgan mavzu qiyosiy tarzda ikki davlatning iqtisodiy aloqalari, mavjud hamkorlik sohalari va ularning mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish imkoniyati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, O'zbekiston energetika, transport-logistika, qishloq xo'jaligi va savdo yo'naliishlarida Afg'oniston bilan hamkorlikni kengaytirib, qo'shni davlat iqtisodiyoti barqarorligiga hissa qo'shmoqda. O'rganishlar yana O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy integratsiya nafaqat ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlayotganini, balki Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalarining iqtisodiy uyg'unligi yaxshilanayotganini ko'rsatadi. Kelgusida mazkur hamkorlikni rivojlantirish uchun siyosiy barqarorlikni ta'minlash va qo'shimcha investitsiya loyihibarini amalga oshirish zarur bo'ladi.*

**Аннотация**

*В статье анализируется новый этап торгово-экономического сотрудничества между Узбекистаном и Афганистаном, а также политика государственных лидеров в области экономики в рамках данного процесса. Цель статьи заключается в освещении вклада Узбекистана в развитие соседней афганской экономики, определении сфер сотрудничества и выявлении будущих возможностей этих отношений. Кроме того, с помощью теории международных отношений в статье проводится сравнительный анализ экономических связей между двумя странами, существующих сфер сотрудничества и их потенциала для регионального экономического развития. Результаты исследования показывают, что Узбекистан расширяет сотрудничество с Афганистаном в таких областях, как энергетика, транспорт и логистика, сельское хозяйство и торговля, тем самым способствуя стабильности экономики соседнего государства. Также исследование показывает, что торгово-экономическая интеграция между Узбекистаном и Афганистаном не только укрепляет двусторонние отношения, но и улучшает экономическую интеграцию Центральной и Южной Азии. Для дальнейшего развития этого сотрудничества в будущем необходимо обеспечить политическую стабильность и реализовать дополнительные инвестиционные проекты.*

**Abstract**

*The article analyzes the new stage of trade and economic cooperation between Uzbekistan and Afghanistan, as well as the policies of the state leaders in the field of economics during this process. The purpose of the article is to highlight Uzbekistan's contribution to the development of the neighboring Afghan economy, identify the areas of cooperation, and explore the future opportunities for these relations. Additionally, using international relations theory, the article compares the economic relations between the two countries, the areas of existing cooperation, and their potential for regional economic development. The research findings show that Uzbekistan is expanding its cooperation with Afghanistan in the areas of energy, transport and logistics, agriculture, and trade, thus contributing to the stability of the neighboring country's economy. The study further demonstrates that trade and economic integration between Uzbekistan and Afghanistan not only strengthens bilateral relations but also improves the economic integration of the Central and South Asian regions. To further develop this cooperation in the future, it will be necessary to ensure political stability and implement additional investment projects.*

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, Afg'oniston, Markaziy Osiyo, tashqi siyosat, iqtisodiy hamkorlik, strategiya, diplomatik munosabatlar, geopolitika.

**Ключевые слова:** Узбекистан, Афганистан, Центральная Азия, внешняя политика, экономическое сотрудничество, стратегия, дипломатические отношения, геополитика.

**Key words:** Uzbekistan, Afghanistan, Central Asia, foreign policy, economic cooperation, strategy, diplomatic relations, geopolitics.

## SIYOSAT

**KIRISH**

O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikning rivojlanishi mintaqaviy barqarorlik va iqtisodiy o'sish uchun katta ahamiyatga ega. Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalarida strategik ahamiyatga ega bo'lgan ushu ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar yangi bosqichga o'tmoqda. Afg'onistonning iqtisodiy o'sishi va rivojlanishi, ayniqsa, O'zbekiston tomonidan ko'rsatilayotgan yordam va qo'shni davlatlar bilan hamkorlik asosida amalga oshirilayotgan loyihibar orqali amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, bu hamkorlik ikki tomonlarga aloqalarni mustahkamlash, savdo va investitsiya sohalarini kengaytirish, mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirish kabi imkoniyatlar yaratmoqda. Usbu qo'shni davlatlar o'rtasidagi xalqaro munosabatlari 2021-yil yozida, Amerika Qo'shma Shtatlari qo'shinlarining Afg'onistondan olib chiqilib, mamlakat boshqaruvi Tolibon harakati qo'liga o'tgach, yangi davrga o'tdi. Ushbu voqe, Afg'onistonning ichki siyosiy vaziyatini keskin o'zgartirgan bo'lsa-da, O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikni davom ettirish va mustahkamlash uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. 15-avgust sanasidan boshlab Afg'oniston Islom Amirligining qayta tashkil etilishi nafaqat mintaqasi, balki butun dunyo uchun siyosiy va geostrategik muhitni keskin o'zgartirdi. Bu voqe xalqaro munosabatlarda yangi muhokamalarni keltirib chiqarib, dunyoning yirik davlatlarini o'z pozitsiyalarini qayta ko'rib chiqishga majbur qildi. O'sha vaqtida AQSh hukumati mahalliy harbiy to'qnashuvlar, siyosiy beqarorlik va uzoq davom etgan mojaror tufayli o'z qo'shinlarini mamlakatdan olib chiqish qarorini qabul qildi. AQSh harbiy qo'shinining olib chiqib ketilishi Afg'onistonda yangi davrning boshlanishiga sabab bo'ldi va bu jarayon mintaqaviy xavfsizlikka, iqtisodiy rivojlanishga va xalqaro aloqalarga o'zining ijobjiy va salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

Markaziy Osiyo, jumladan Afg'oniston joylashgan mintaqasi ham dunyo savdosining katta qismini tashkil etuvchi okean orqali savdodan chetda qolgan hududlardir. Bu omil mintaqaning global iqtisodiyotga to'liq integratsiyalashuvini murakkablashtiradi. Afg'onistonning Pokiston, Eron, Turkmaniston, O'zbekiston, Tojikiston va Xitoy bilan chegaradoshligi uni Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasida strategik ko'priksiz sifatida alohida ahamiyatli davlatga aylantiradi.

Ushbu maqolada Afg'onistonning yangi siyosiy boshqaruvi, shu bilan birga, O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi xalqaro munosabatlari, xususan iqtisodiy integratsiya qanday shakllanayotgani ham ko'rib chiqiladi.

**METODOLOGIYA**

Xalqaro munosabatlari nazariyasida davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar ularning tashqi siyosatining muhim qismi hisoblanadi. Neo-realist va liberal nazariyalar bu munosabatlarni turlicha izohlaydi. Neo-realistlar manfaatlar va xavfsizlikni ustuvor qo'ysa, liberallar iqtisodiy integratsiya va hamkorlikni barqarorlikka erishish vositali sifatida ko'radir.

Mazkur maqolada ham ushu nazariyalardan foydalangan holda tadqiqot olib boriladi. O'zbekiston va Afg'oniston munosabatlarini ushu nazariy doirada tahlil qilish mintaqaviy geosiyosatning o'ziga xos tomonlarini ochib beradi. Shu bilan birga, bu tahlil, ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning qanday siyosiy va ijtimoiy omillar bilan bog'liqligini tushunishga yordam beradi. Natijada, o'zaro manfaatlar va xavfsizlikni ta'minlashda iqtisodiy integratsiyaning rolini yanada chuqurroq o'rganish imkoniyati paydo bo'ladi.

**TASHQI SIYOSAT TAHЛИLИ**

Hozirda Afg'onistonning xalqaro miqyosda o'z manfaatlarini himoya qilish va boshqa davlatlar bilan aloqalarni mustahkamlashga intilayotgani sezilmoqda. Bu jarayonni mamlakat bo'ylab va undan tashqarida faoliyat yuritayotgan diplomatik vakolatxonalar tarmog'i ko'payayotgani ham tasdiqlaydi[1].

Afg'onistonning siyosiy vaziyatni tahlil qilgan Markaziy Osiyo davlatlari, mayjud holatdan kelib chiqib, Tolibon bilan muloqot va hamkorlik qilish yo'lini tanlamoqda. Avval hamkorlikdan bosh tortgan davlatlar, jumladan, Tojikiston ham bugungi kunda xalqaro munosabatlarni normallashtirish yo'lida muzokaralar olib bormoqda. Bundan tashqari, O'zbekiston va Qozog'iston kabi davlatlar Tolibon bilan aloqalarni rivojlantirish orqali mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy integratsiyani mustahkamlashga harakat qilmoqda. Bu jarayon Afg'onistonning mintaqaviy hamkorlikdagi ahamiyatini yanada oshirib, uning barqarorligi qo'shni davlatlar uchun ham kerak ekanini ko'rsatadi. Shunday qilib, Afg'onistonning geografik joylashuvi va ichki siyosiy o'zgarishlar Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlari oldida yangi imkoniyatlar va qiyinchiliklarni yuzaga keltirib chiqardi. Qo'shnilarining

Tolibon bilan konstruktiv hamkorlik o'rnatishi mintaqqa barqarorligi va taraqqiyoti sari muhim qadam hisoblanadi.

O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanib, savdo hajmi ortib bormoqda. Masalan, 2023-yil yakuni bo'yicha Afg'oniston bilan o'zaro savdo hajmi 866,9 million dollarni tashkil qildi. O'zbekiston eksporti 856,6 million dollardan, import esa 10,3 million dollardan oshdi[2]. Bu esa oxirgi besh yilda qariyb bir yarim barobar oshganini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichlar bilan Afg'oniston mamlakatimizning asosiy o'nta savdo hamkorlari qatoriga kirdi.

O'zbekiston Afg'oniston uchun muhim savdo hamkori bo'lib, mamlakatimizda afg'on sarmoyasi ishtirokidagi 550 ta korxona faoliyat yuritmoqda, ularning 443 tasi 100 foiz afg'on kapitaliga ega. Hukumat tomonidan 2024-yilda Afg'oniston bilan savdo aylanmasini 1 milliard dollarga, yaqin yillarda esa 3 milliard dollarga yetkazishni maqsad qilib oldi[3]. Shuningdek, O'zbekiston, Afg'oniston va Pokiston o'zaro savdo hajmini oshirish bo'yicha ishchi guruh tuzish rejasini e'lon qildi. Bu uch tomonlama hamkorlik mintaqaviy iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan[4].

O'zbekiston Afg'oniston bilan xalqaro aloqalarda siyosiy jihatdan ushbu davlatda tinchlik va barqarorlikni qo'llab-quvvatlaydi. Birinchidan, kecha ham bugun ham O'zbekiston Afg'onistonda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga ko'maklashib kelgan. Bu borada davlat xalqaro hamjamiyat bilan birgalikda mintaqada barqarorlikka erishish uchun vositachilik qilishga intilib keladi[5]. Ikkinchidan, O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasida ochiq va do'stona diplomatik munosabatlar yo'lga qo'yilgan. Bu muloqot tinchlik muzokaralarida ham yaqqol ko'rindi[6]. Uchinchidan mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash borasida O'zbekiston Afg'onistonni Markaziy Osiyo integratsiyasining ajralmas qismi sifatida qabul qiladi va uni xalqaro savdo yo'laklariga integratsiyalashni qo'llab-quvvatlaydi.

Davlatlarimiz o'rtasida iqtisodiy tomonlama esa qator yo'naliishlarda xalqaro hamkorlik yo'lga qo'yilgan:

**Transport va infratuzilma loyihalari:** O'zbekiston Afg'onistonga transport va logistika sohasida yirik loyihalari, jumladan, "Termiz–Mozori Sharif–Kobul–Peshovar" temir yo'l loyihasi orqali yordam bermoqda[7]. Loyiha Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, O'zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan yirik infratuzilmaviy loyiha hisoblanadi. Ushbu loyiha orqali O'zbekiston Janubiy Osiyo bozorlariga, jumladan, Pokiston portlariga chiqish imkoniyatiga ham ega bo'ladi. Temir yo'l qariyb 600 kilometr uzunklikda bo'lib, bu orqali tranzit va savdo imkoniyatlarini oshirish, logistika xarajatlarini kamaytirish va butun mintaqada iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash rejalashtirilgan. Loyiha umumiy qiymati \$7 milliard atrofida baholanmoqda. Loyihaning asosiy maqsadlari tijorat va savdo imkoniyatlarini kengaytirish: Markaziy Osiyo davlatlari va Janubiy Osiyo o'rtasida savdo oqimlarini sezilarli darajada oshirish, dengiz portlariga chiqish: temir yo'l orqali Pokistonning Karachi va Gvadar portlariga ulanish, bu orqali mintaqaviy eksport va import hajmini oshirish. Tranzit imkoniyatlarini oshirish: Butun Markaziy Osiyo mintaqasining xalqaro tranzit koridoriga aylanishiga yordam berish. Bundan Afg'onistonning iqtisodiy rivojlanish manfaatlari ham ko'zda tutiladi, ya'ni Afg'oniston ushbu loyihamidan tranzit mamlakat sifatida katta daromad oladi. hamda loyihaning amalga oshirilishi yangi ish o'rinnari yaratilishiga sabab bo'ladi va Afg'oniston iqtisodiyotining tiklanishiga ko'mak beradi. Bu temir yo'l yo'lagi Afg'onistonning global savdo tarmog'iga integratsiyalashuvini ta'minlab, uni mintaqaviy savdo markaziga aylantirishga xizmat qiladi.

Geosiyosiy ahamiyatini tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu loyiha O'zbekistonning Janubiy Osiyoga iqtisodiy kirib borishini ta'minlaydi va uning mintaqaviy tranzit markazi sifatidagi mavqeini mustahkamlaydi. Buning uchun O'zbekiston, Afg'oniston va Pokiston hukumatlari loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi yo'lida doimiy uchrashuvlar o'tkazmoqda. Temir yo'lni qurish ishlari 2025-yilgacha boshlangan holda, uning ilk bosqichini 2030-yilgacha yakunlash kutilmoqda. Mazkur loyiha mintaqadagi barqarorlik va iqtisodiy integratsiyani mustahkamlash bilan birga, Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlarining yangi bosqichda hamkorligini rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

**Energetika sohasidagi yordam:** O'zbekiston Afg'onistonni elektr energiyasi bilan ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Davlat Afg'onistonga elektr energiyasini eksport qilayotgan asosiy yetkazib beruvchilardan biri hisoblanadi. O'zbekiston 2002-yildan buyon Afg'onistonga elektr energiyasi yetkazib kelmoqda. 2019-yilda "Milliy elektr tarmoqlari" va DABS kompaniyalari o'rtasida imzolangan 10 yillik shartnoma asosida 2023-yilga kelib elektr energiyasi eksport hajmi 62 million kWt/soatdan 1,82 milliard kWt/soatga yetdi. Afg'oniston hozirda elektr energiyasining 80 foizini O'zbekiston,

## SIYOSAT

Tojikiston, Turkmaniston va Erondan import qiladi, ichki ishlab chiqarish esa talabning atigi 20 foizini oplaydi.

O'zbekiston va Afg'oniston Islom Amirligi o'rtasidagi iqtisodiy integratsiya, xususan, energetika sohasidagi hamkorlik mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash va savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashda muhim o'rinni tutadi.[8] 2024-yilning dekabr oyida yangi elektr uzatish liniyasi loyihasi doirasida O'zbekiston energetika vaziri Jo'rabet Mirzamahmudov boshchiligidagi delegatsiya Afg'onistonga tashrif buyurib, "O'zenergosotish" va DABS kompaniyalari o'rtasida elektr energiyasini sotib olish bo'yicha yangi shartnoma imzoladi. Bundan tashqari, tomonlar O'zbekistondan Afg'onistonga 500 kV quvvatli elektr uzatish liniyasini qurish bo'yicha texnik muhokamalarni amalgalashdi.

Mazkur loyiha Surxondaryo viloyatidan Puli-Xumri orqali Kobulga uzatiladigan 245,6 km uzunlikdagi elektr tarmog'ini qurishni ko'zda tutadi. Uning 45 km qismi O'zbekiston hududida, qolgan 200,6 km esa Afg'onistonda joylashadi. Bu loyiha Afg'onistonga sutkasiga 24 million kVt/soat yoki yiliga 6 milliard kVt/soat elektr energiyasi yetkazib berishni ta'minlaydi.

Energetika hamkorligining ahamiyati shundan iborat-ki, mazkur kelishuv ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash bilan birga, Afg'onistonning elektr energiyasi taqchilligini bartaraf etishda muhim qadam hisoblanadi. Yangi elektr tarmog'i faqatgina Afg'onistonning iqtisodiy rivojlantishiga hissa qo'shib qolmay, balki mintaqaviy energetika tizimining barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston va Afg'onistonning energetika sohasidagi hamkorligi Afg'oniston iqtisodiyotini tiklash bilan birga, O'zbekistonning mintaqadagi strategik o'rnini mustahkamlashga yordam beradi. O'zbekistonning elektr energiyasi eksport hajmini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlari, shuningdek, qo'shni davlatlar bilan savdo aloqalarini mustahkamlash va energetika infratuzilmasini rivojlantirishga asos bo'lmoqda. O'zbekiston va Afg'onistonning bu boradagi o'zaro manfaatli hamkorligi mintaqqa iqtisodiyoti va barqarorligini yangi bosqichga olib chiqishi kutilmoqda.

**Savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish:** O'zbekiston Afg'oniston bilan savdo hajmini oshirishga intilmoqda, bu borada chegara savdosi va qo'shma korxonalar tashkil etish masalalari dolzarb hisoblanadi.

O'zbekistonning janubiy hududi — Surxondaryo viloyati Afg'oniston bilan qo'shni ekanini hisobga olib, 2024-yil 13-mayda Prezident tomonidan PQ-176-sonli qaror qabul qilindi[9]. Mazkur qarorga ko'ra, Surxondaryo viloyatining Termiz shahri chegara hududida "**Termiz xalqaro savdo markazi**" erkin savdo zonasini faoliyatini yo'lga qo'yish va rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar amalgalashdi. Bu qarordan so'ng ikki davlat o'rtasida quyidagi muhim ishlarni amalgalashdi:

Ushbu markazda Afg'oniston va O'zbekiston tadbirkorlari o'z mahsulotlarini erkin sotish imkoniyatiga ega bo'ldi. Savdo markazi xalqaro me'yorlarga mos ravishda barpo etilib, logistika va bojxona xizmatlari soddalashtirildi. Shu sababli, Termiz orqali o'tuvchi savdo karvonlari hajmi ko'paydi va O'zbekiston mahsulotlarining Afg'oniston bozoridagi ulushi sezilarli darajada oshdi. Afg'oniston tadbirkorlari uchun O'zbekiston orqali boshqa davlatlar bilan ham iqtisodiy aloqalar o'rnatiш imkoniyati yaratildi. Yana transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish orqali O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi temir yo'l va avtomobil yo'llari tarmog'i modernizatsiya qilinib, yuk tashish jarayoni ancha tezlashdi. Termiz shahridan Afg'onistonning Mozori Sharif va Hirot shaharlariga yo'nalan transport yo'nalishlari kengaytirildi. Tadbirkorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida Afg'onistonlik tadbirkorlar uchun maxsus bojxona imtiyozlari taqdim etildi. Unda Termiz shahri orqali olib o'tiladigan tovarlarning rasmiylashtirish jarayonlari soddalashtirildi.

O'zbekistonning Afg'oniston bilan iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha qabul qilgan ushbu qarorlari ikki davlat o'rtasidagi do'stona munosabatlarning yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qilmoqda. "Termiz xalqaro savdo markazi" ushbu jarayonning mintaqaviy markaziga aylanib, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu sa'y-harakatlari O'zbekistonning mintaqaviy hamkorlikdagi yetakchi o'rnini mustahkamlash bilan birga, Afg'oniston iqtisodiyotini tiklash va barqaror taraqqiyot yo'liga olib chiqishga ko'mak bermoqda. O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikni izchil rivojlantirish yo'lida 2024-yil 17-avgust kuni O'zbekiston bosh vaziri Abdulla Aripov boshchiligidagi delegatsiya Kobulga tashrif buyuradi. Tashrif davomida ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlashga qaratilgan muhim kelishuvlarga erishildi. Uchrashuvlarda o'zaro savdo aylanmasini 2024-yilda 1 milliard dollarga, yaqin kelajakda esa 3 milliard dollarga yetkazish imkoniyatlari muhokama qilindi. Buning uchun

foydalanilmagan resurslarni o'zaro manfaatli asosda ishga solish zarurligi ta'kidlandi. Shuningdek, ikki tomonlama investitsiyalarni himoya qilish va imtiyozli savdo to'g'risidagi bitimlar savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga turtki berishi qayd etildi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham mazkur masalaga o'zining strategik yondashuvini quyidagicha izohlagan edi:

"Bular [Tolibon — tahr.] bilan bugun yo kecha emas, ikki yil oldin — hali hech qaysi davlat ular bilan gaplashmaganda muloqotni boshlagandik. Menga xalqimning tinchligi kerak, osoyishtaligi kerak. Faqat va faqat o'zbek xalqimning, jonajon O'zbekistonning tinchligiga ta'sir ko'rsatadigan omil bo'lsa, kim bo'lisdan qat'i nazar muloqotga kirishishga tayyorman," — deya ta'kidlagan edi davlat rahbari. [10]

**Insonparvarlik yordami** doirasida "Termiz xalqaro savdo markazi"da tez-tez ikki davlat san'atkorlari va hunarmandlari ishtirokida madaniy yarmarkalar va ko'rgazmalar tashkil qilinmoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasida o'zaro turistik almashinuv soni ham ortib bormoqda, ikkala taraf tashrif buyuruvchilarining tarixiy va madaniy maskanlarga qiziqishlari baland bo'lmoqda. O'zbekiston Afg'onistonning iqtisodiy tiklanishiga yordam berish maqsadida insonparvarlik yordamini, jumladan, oziq-ovqat, dori-darmon va boshqa zarur resurslarni yetkazib bermoqda. Sanab o'tilganidek, O'zbekiston Afg'oniston bilan munosabatlarda barqarorlik va o'zaro manfaatdorlik prinsiplariga tayanadi. Bu yo'l ikki davlat o'rtasida nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki mintaqada tinchlik va hamkorlikka ham xizmat qiladi.

### NATIJA VA MUHOKAMA

O'zbekistonning Afg'oniston bilan iqtisodiy hamkorligi mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash va o'zaro manfaatdorlikni kuchaytirishga asoslangan. Bu, ayniqsa, energetika, transport va infratuzilma sohalaridagi loyihalarda yaqqol ko'rindi. Masalan, "Termiz–Mozori Sharif–Kobul–Peshovar" temir yo'l loyihasi nafaqat ikki davlatni bog'lash, balki Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasida strategik savdo yo'lagi yaratish maqsadini ko'zlaydi. Neo-realislari nuqtai nazaridan, bu loyiha O'zbekistonning mintaqaviy geosiyosiy ahamiyatini oshiradi, chunki u boshqa davatlarga nisbatan o'zining transport tarmog'idagi ustunligini kuchaytiradi.

Yana bir masala. O'zbekiston uchun suv resurslari muhim rol o'yndaydi. Suv tashqi va ichki siyosiy bosimni boshqarish xususiyatiga ega. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, suv resurslari masalasi, etnik nizolar va chegaraviy mojarolar kabi masalalar qatorida turadi, balki undan ham ortiq ahamiyatli.[11] Ushbu muammolar Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida katta to'qnashuvlarga olib kelmagan bo'lsa-da, bu mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qiladi.

Afg'onistondan oqib keluvchi suv resurslaridan foydalanish O'zbekiston uchun muhim strategik ahamiyatga ega. Shu sababli, mamlakat o'zaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish orqali Afg'oniston bilan ma'lum darajada o'zaro bog'liqlikni yaratishni maqsad qilgan. Bu yondashuv Tolibonni suv resurslaridan bosim vositasi sifatida foydalanishdan tiyilishi uchun samarali choralar ko'rishga xizmat qilishi mumkin. Savdo va iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirishga bo'lgan intilish O'zbekiston bilan barqaror va konstruktiv munosabatlarni saqlab qolishga Tolibon uchun rag'bat sifatida xizmat qiladi. Shu tariqa, O'zbekiston suv xavfsizligiga bo'lgan tahdidlarni kamaytirish maqsadida iqtisodiy aloqalarni himoya mexanizmi sifatida ishlatmoqda. Bu yondashuv Tolibonning suv resurslaridan bosim vositasi sifatida foydalanish harakatlari qarshi kuchli iqtisodiy javob, jumladan, savdo munosabatlarini to'xtatish imkoniyati orqali javob berishni o'z ichiga oladi.

Boshqa tomondan, liberal nazariya Afg'oniston bilan iqtisodiy hamkorlikni O'zbekiston tashqi siyosatidagi konstruktiv yondashuvning ifodasi sifatida talqin qiladi. Elektr energiyasini eksport qilish, savdo hajmini oshirish va insonparvarlik yordamini ko'rsatish orqali O'zbekiston barqaror qo'shnichilik tamoyillarini ilgari surmoqda. Bu yondashuv nafaqat iqtisodiy rivojlanishga, balki mintaqaviy integratsiya va barqarorlikka xizmat qiladi. Qisqa qilib aytganda, O'zbekiston va Afg'oniston iqtisodiy munosabatlari nafaqat ikki tomonlama, balki mintaqaviy barqarorlik va taraqqiyot uchun ham muhimdir. Bu munosabatlar tashqi siyosat tahvilining ikki asosiy yondashuvi – manfaatlar asosida amalga oshirilayotgan realistik harakatlar va iqtisodiy integratsiyani rivojlantirishga qaratilgan liberal tamoyillar bilan uzviy bog'liqdir.

O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi so'nggi yillardagi hamkorlik: iqtisodiy, savdo va madaniy hamkorlik - aloqalarning yangi bosqichi deya etirof etilmoqda. Ushbu jarayonda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan qaror va farmonlar muhim o'r'in tutmoqda. Jumladan, 2020-yil 12-noyabr kuni Prezidentning PQ-4892-sonli qarori asosida Afg'oniston Islom Respublikasi bilan iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish va

## SIYOSAT

mustahkamlash chora-tadbirlari belgilab berilgan.[12] Mazkur qaror doirasida quyidagi muhim yo'nalishlarda faoliyat olib borildi:

- Savdo aloqalarini kengaytirish orqali o'zaro eksport-import hajmlarini oshirish;
- Transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish orqali ikki davlat tadbirkorlari uchun qulay sharoit yaratish;
- Afg'onistonda O'zbekiston mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirish maqsadida savdo markazlari va bozorlarni rivojlantirish.

Prezidentning bu bayonoti O'zbekistonning pragmatik tashqi siyosat yuritayotganidan, mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashda faolligidan dalolat beradi. O'zbekiston har doim Afg'onistonni Markaziy Osiyo mintaqasining ajralmas qismi deb bilgan holda, bu davlat bilan tinchlik, xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlik yo'nalishida yaqin aloqalar o'rnatishni qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston xalqaro hamjamiyat singari "Tolibon" harakatidan **Doha kelishuvi** doirasidagi majburiyatlarini bajarishni, xususan:

- Afg'onistonning barcha ichki siyosiy kuchlarini jalb qilgan holda inklyuziv hukumat tuzishni;
- Fundamental inson huquqlarini ta'minlashni;
- Afg'oniston hududida terroristik kuchlarning faoliyatiga barham berishni kutadi.

## XULOSA

O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston o'zining konstruktiv yondashuvi bilan Afg'onistonni siyosiy va iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Xususan, ikki davlat o'rtasida savdo-sotiq hajmi kengaymoqda, infratuzilma va energetika kabi strategik yo'nalishlarda qo'shma loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu iqtisodiy aloqalar Afg'onistonning tiklanishiga ko'maklashish bilan birga, O'zbekistonning mintaqaviy yetakchi davlat sifatidagi mavqeini yanada mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, O'zbekistonning bu sa'y-harakatlari xalqaro hamjamiyat tomonidan mintaqadagi tinchlik va barqarorlikka qo'shilgan muhim hissa sifatida baholanmoqda. Afg'oniston bilan barqaror muloqot va qo'shma iqtisodiy loyihalarning yo'lga qo'yilishi O'zbekistonning nafaqat iqtisodiy, balki mintaqaviy siyosiy jarayonlarda ham muhim o'ringa ega ekanligini ko'rsatadi. Bu yondashuv mamlakatning tinchlikparvar tashqi siyosatini va barqaror rivojlanishga bo'lgan intilishini yorqin namoyon etadi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "O'zbekiston Respublikasining Afg'oniston bilan mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlik borasidagi aloqalari". «lex.uz», <https://lex.uz/docs/-6921771>
2. "Uzbekistan builds relations with Afghanistan based on mutual benefit and regional cooperation". «lex.uz», <https://www.lex.uz/en/docs/-5100020>
3. "Узбекистан и Афганистан обсуждают ускорение строительства Транс-Афганской железной дороги". «gazeta.uz», 18-dekabr 2024-yil, <https://www.gazeta.uz/ru/2024/12/18/usb-afg/>
4. "O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlар vazirligi: Afg'oniston bo'yicha tashqi siyosiy faoliyat yo'nalishlari". «mfa.uz», <https://mfa.uz/36488>
5. "O'zbekistonning Kobuldag'i elchixonasi: mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlik yo'nalishidagi tashabbuslar". «afghanistan.mfa.uz», <https://afghanistan.mfa.uz/news/2456?language=uz>
6. "Construction of Trans-Afghan Railway to be Accelerated". «kun.uz», 27-dekabr 2023-yil, <https://kun.uz/en/news/2023/12/27/construction-of-trans-afghan-railway-to-be-accelerated>
7. "Embassies of Afghanistan Worldwide". «Embassy-Worldwide.com», <https://www.embassy-worldwide.com/country/afghanistan/>
8. O'sib borayotgan pragmatizm: A.Aripovning tashrifi nimani anglatadi? // IAIS.uz, <https://iais.uz/uz/outputnew/osib-borayotgan-pragmatizm-aaripovning-tashrifi-nimani-anglatadi>
9. "O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi: Afg'oniston bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish masalalari". «chamber.uz», <https://chamber.uz/news/129>
10. "Qirg'iziston "Tolibon"ni taqilangan tashkilotlar ro'yxatidan chiqardi". «gazeta.uz», <https://www.gazeta.uz/oz/2024/09/08/kyrgyzstan/>
11. International Crisis Group. (2002, 30-may). *Markaziy Osiyo: Suv va nizolar* (ICG Asia Report № 34, b. 5). <https://www.crisisgroup.org>
12. "O'zbekiston, Afg'oniston va Pokiston o'zaro savdo hajmini oshiradi". «zamin.uz», <https://zamin.uz/uz/iqtisodiyyot/123804-ozbekiston-afgoniston-va-pokiston-ozaro-savdo-hajmini-oshiradi.html>